

Methods of building language knowledge through online testing systems

Komilova Zulhumor Khakimovna

humor851@mail.ru

Teacher of Fergana State University

Yuldasheva Muqaddaskhon Ravshan qizi

Student of Fergana State University

Annotation

This article provides an in-depth exploration of modern approaches to assessing language proficiency through online testing systems. With the rapid expansion of digital technologies, language learning and assessment have shifted from traditional formats to fast, transparent, and automated methods. The paper discusses the functional features of online testing platforms, adaptive testing models, automated scoring mechanisms, user performance tracking tools, and data-driven result analysis algorithms. Additionally, it examines issues such as test reliability, validity, difficulty level calibration, reduction of technical errors, and the promotion of academic integrity in digital environments.

Keywords: Online testing systems, language assessment, information technology, adaptive testing, automated assessment, electronic testing platforms, academic integrity, test reliability, digital learning, language skills assessment.

Annotatsiya

Ushbu maqolada onlayn sinov tizimlari yordamida til kompetensiyasini baholashning zamonaviy yondashuvlari, texnologik imkoniyatlari va ularning ta'lim jarayonidagi ustunliklari keng tahlil etilgan. Raqamlashtirish jarayonining kuchayishi natijasida til o'rganish va til bilimini baholash jarayonlari an'anaviy usullardan farqli ravishda tezkor, shaffof va avtomatlashtirilgan shaklga o'tmoqda. Maqolada onlayn test platformalarining funksional xususiyatlari, adaptiv testlash modeli, avtomatik baholash mexanizmlari, foydalanuvchi faoliyatini monitoring qilish vositalari hamda natijalarni tahlil qilish algoritmlari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: Onlayn sinov tizimlari, til bilimini baholash, axborot texnologiyalari, adaptiv testlar, avtomatlashtirilgan baholash, elektron test platformalari, akademik halollik, test ishonchliligi, raqamli ta'lim, til ko'nikmalarini baholash.

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida til bilimini baholash jarayonlari ham innovatsion texnologiyalar asosida takomillashib bormoqda. Onlayn test tizimlari yordamida nafaqat bilimni baholash, balki o'quvchining o'zlashtirish jarayonini doimiy monitoring qilish imkoniyati yaratiladi. Har bir sinovning shaffofligi, tezkorligi va obyektivligi raqamli baholash tizimlarining asosiy ustunliklaridan biridir. Ayniqsa, masofaviy ta'lim jarayonlarida onlayn baholash vositalarining ahamiyati keskin oshdi.

Hozirgi vaqtda ixtiyoriy ta'lim muassasasining har bir o'qituvchisi o'z faoliyatida o'qitadigan fani bo'yicha o'quvchilarning bilim darajasini baholash usuli sifatida test o'tkazishdan foydalanadi. Buning uchun u ilmiy asoslangan test topshiriqlarini Davlat ta'lim standartlari yoki Davlat talablariga mos ta'lim dasturi bo'yicha ishlab chiqishi zarur.

Ta'limiy testlarning dolzarb muammolari bo'yicha xorijiy davlatlarning tajribasi o'rganish ko'pgina davlatlarda (Angliya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Amerika Qo'shma Shtatlari) oxirgi o'n yillik ichida test jarayoniga o'zgartirish kiritish tendensiyasiga o'tilayotganligini ko'rsatdi.

Onlayn test platformalari bir nechta texnologik qatlamlardan iborat bo'lib, ular o'zaro integratsiya orqali sinov jarayonini mukammal tashkil etadi. Foydalanuvchi interfeysi, dasturiy ta'minot qatlami, ma'lumotlar bazasi va xavfsizlik modullari tizimning asosiy komponentlari

hisoblanadi. Til sinovlarida ishlatiladigan audio va video modullar, fonetik tahlil vositalari, avtomatik grammatik tekshiruv tizimlari platformaning funksional imkoniyatini kengaytiradi.

Til kompetensiyasini baholashda xalqaro standartlar — CEFR mezonlari qo'llaniladi. Onlayn tizim orqali tinglab tushunish, o'qish, yozish, gapirish hamda leksik-grammatik bilimlar avtomatik ravishda tahlil qilinadi. Har bir ko'nikma uchun alohida modullar ishlab chiqilishi test natijasining aniq va obyektiv bo'lishini ta'minlaydi.

XX asrga kelib Yevropa va Amerikada test amaliyoti juda rivojlanib ketdi. Ayniqsa insonning aqliy qobiliyatlarini baholashga mo'ljallangan aqliy testlar (IQ tests) ga talab ortdi. Mazkur testlar xotira va tushunish kabi qobiliyatlarni baholashni ham o'zida mujassamlashtirgan edi. Bu turdagi baholash vositalarining ommalashuviga muhim xissa qo'shgan hodisa Fransiya Xalq ta'limi vaziri Alfred Binet tomonidan yaratilgan test bo'ldi. Alfred Binet mazkur testdan maktab darslarini yaxshi o'zlashtira olmayotgan o'quvchilarning qobiliyatlarini baholashda foydalangan edi. Keyinchalik Alfred Binet o'z hamkori Teodor Saymon bilan hamkorlikda ushbu testdan turli maqsadlarda foydalana boshladi. Ularning tajribalari Amerikaga 1916-yilda kirib keldi va Stenford universiteti olimi Luis Terman bu baholash vositalarini yanada takomillashtirdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, hozirgi zamonaviy aqliy testlardan biri Stenford-Binet testi deb nomlanadi.

Qabul qilinadigan qarorlar asosli bo'lishi uchun test asosida chiqariladigan xulosalar ham valid (asosli) bo'lishi lozim. Validlik – testning sifatini belgilaydigan eng asosiy tushuncha. Validlik deganda testning maqsadidan kelib chiqqan holda, test natijalari yordamida chiqariladigan xulosalarning qay darajada ilmiy va empirik jihatdan asosli ekanligi tushuniladi.

1950-yillarga kelib validlikning uch turi mavjud, degan qarash shakllandi:

- mezoniy (kriterial) validlik – testning biror-bir mezon bilan mosligi, o'z navbatida mezoniy validlikning ikki turi mavjud deb qaralgan;
- prediktiv validlik – testning belgilangan mezon bo'yicha natijalarni bashorat qila olish qobiliyati. Masalan, oliy ta'lim muassasasiga kirish testlari bo'lajak talabalarning tanlangan sohalarini qay darajada muvaffaqiyatli o'zlashtira olishlarini bashorat qila olishi lozim;
- solishtirma validlik – test natijasining belgilangan mezon bo'yicha boshqa o'lchovlar natijalari bilan mosligi. Masalan, o'quvchilarning ingliz tilidan bilim darajasini baholaydigan test yaratsak, uning xuddi shu domenni o'lchaydigan shu paytgacha mavjud boshqa test (masalan, IELTS yoki TOEFL imtihonlari) bilan solishtirma validligini aniqlashimiz mumkin;
- mazmuniy validlik – testning o'lchanishi lozim bo'lgan domen mazmuni bilan mosligi;
- konstruktiv validlik – testning o'lchanishi lozim bo'lgan konstruktiv(xususiyatni) to'g'ri o'lchashi.

XULOSA. Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, onlayn sinov tizimlari zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan bo'lib, til bilimni baholash jarayonini samarali, adolatli va yuqori aniqlikda amalga oshirish imkonini beradi. Raqamli test platformalarining adaptivlik, avtomatlashtirilgan baholash, statistik tahlil, foydalanuvchi faoliyatini monitoring qilish kabi funksiyalari til kompetensiyalarini (tinglab tushunish, o'qish, yozish, og'zaki nutq) kompleks baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy baholashga nisbatan onlayn tizimlar test jarayonini jadallashtiradi, baholash jarayonining shaffofligini ta'minlaydi, subyektivlikni kamaytiradi hamda o'quvchi va talabalar natijalarini individual yondashuv asosida tahlil qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalar shuni tasdiqlaydiki, onlayn baholash tizimlari til o'rganish jarayonini raqamlashtirish, o'quv yuklamasini optimallashtirish, ta'lim sifatini oshirish va baholash metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Adaptiv testlash mexanizmlarining qo'llanishi esa bilim darajasiga mos topshiriqlarni avtomatik tanlab, baholashning ishonchiligidini oshiradi.

Umuman olganda, onlayn sinov tizimlaridan foydalanish til bilimni baholashning zamonaviy, qulay va samarador mexanizmi bo'lib, ta'lim jarayonida raqamli transformatsiya jarayonini

kuchaytiradi. Shu bois, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida onlayn sinov tizimlari til o'qitish va baholashning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- Jo'rayev B. Axborot texnologiyalari asoslari. — Toshkent, 2020.
- Rashidova D., Bobojonov S. Raqamli pedagogika asoslari. — Toshkent, 2021.
- Turg'unov A. Zamonaviy testologiya. — Toshkent, 2019.
- Xudoyqulov M. Masofaviy ta'lim texnologiyalari. — Toshkent, 2022.
- Abdurahmonov R. Onlayn baholash tizimlari va innovatsion yondashuvlar. — Samarqand, 2023.
- <https://ziyonet.uz>.
- Abdullayeva, M. (2020). O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
- Tojiboyev, I., & Karimova, N. (2022). Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning metodik asoslari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 4(3), 87–95.
- Qodirova, M. (2021). O'zbekistonda raqamli ta'limni joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari. Pedagogika va psixologiya jurnali, 2(1), 56–63.
- Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023). Some approaches to teaching programming languages in professional educational institutions. Education and science in the XXI century. 2 (38).
- Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023) The role of information technologies in teaching technical sciences in professional educational institutions. Scientific and practical journal "Technique". Issue No.1.
- Komilova, Z. Kh. (2023). The role and importance of information technology science in today's society. Education and innovative research. Bukhara State University, 2(2), 234-237.
- Zokirova, S., & Xusanova, G. (2024). SOSIOLINGVOMADANIYATSHUNOSLIK KONTEKSTIDA BOLALAR O'YINLARI TUSHUNCHASI. Farg'ona davlat universiteti, (3), 547-547.
- Zaylobidinovna, R. G. (2022). Comparative Study of the Names of Children's Games in Uzbek and English. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(8), 136-138.
- Komilova Z.Kh, Nazirjonova. F.S The role of new information technologies in education. Экономика и социум. 2021, № 4-1 (83), -C.167-170.
- Z. X. Komilova. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiytdagi o'rni va ahamiyati //Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 234-237.
- Z. X. Komilova & F. S. Nazirjonova. (2020). The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal). ISSN, 2249-7137.